

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH**

**Mirzaliyeva Dilshoda <sup>1</sup>**

<sup>1</sup> *Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 40-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 10.02.2025*

*Revised: 11.02.2025*

*Accepted: 12.02.2025*

**KALIT SO'ZLAR:**

*boshlang'ich ta'lim,  
AKT, texnologik xarita,  
innovatsion texnologiya,  
metod, vosita*

*Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayoni o'qituvchilariga qo'yilgan talablar va ta'lim sifatini oshirishda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishi kerakligi aytilgan. Bundan tashqari, dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqligi xususida ta'kidlangan*

**KIRISH.** Boshlang'ich sinflar o'qituvchisining faoliyati eng avvalo, jajji o'quvchi-bolajonlarni ta'lim muhitiga moslashtirish bo'lib hisoblanadi. Ularda o'qish jarayoniga qiziqish hamda zamonaviy o'quvchilarga zarur bo'lgan xususiyatlarni shakllantirish, ta'lim jarayonining o'ziga xos jihatlari bilan tanishtirish birinchi o'qituvchining vazifasi bo'lib hisoblanadi. Hozirgi davr boshlang'ich sinflar o'qituvchisi o'quvchi-bolalarni zamonaviy axborot jamiyati sharoitlarida o'qitish, ta'lim va tarbiya berish, ularga dastlabki bilimlarni zamon ruhiga muvofiq ravishda, yetkazib bera bilishi zarur. O'qitishning asosiy maqsadi - o'quvchi bolalarning bilimlarni o'zlashtirish hamda ta'lim jarayonida olgan axborotlardan amaliy foydalanish jarayonlarini ham anglab borishga o'rgatishdan iborat.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni o'qituvchilari zamon talabiga mos dars o'tishlari uchun AKT sohasida salohiyatga ega bo'lishlari zarur. Bu hozirgi davrda uzluksiz ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Umumiy ma'noda axborot- kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi salohiyati tushunchasida insonning AKT savodxonligi, ya'ni kundalik hayotida ham, kasbiy faoliyatida ham undan to'g'ri foydalana olish qobiliyati nazarda tutiladi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof- muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning

birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakam ehtiros bo'ladi. Darsning oldindan loyihasi, ya'ni texnologik xaritasi tuziladi. Texnologik xarita tuzish uchun o'qituvchi darsning har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar, ularda o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish yo'llari, teskari aloqani amalga oshirish, ularga ajratilgan vaqtni aniq belgilash lozim. Texnologik xaritada albatta tashkiliy qism, yangi mavzuning motivatsiyasi, o'quvchilar bilimini tekshirish, yangi mavzuni o'rganish va uni mustahkamlash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va yakun yasash kabi bosqichlari bo'ladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchining dars davomida bajaradigan ishlari bosqichma-bosqich qayd etiladi. Dars texnologik xaritasining mukammal tuzilishi, maqsad va vazifalarini amalga oshirish, samaradorlikka erishish va bosqichlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi.

Pedagogning AKT sohasidagi bilimlari salohiyati ularning ushbu sohada malaka oshirishlari orqali amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinflar o'qituvchilari muntazam ravishda, AKT bo'yicha malaka oshirishlari, shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimi talablariga muvofiq bo'lish uchun mustaqil ta'lim orqali ham o'z bilimlarini oshirishlari zarur. Bundan tashqari, o'qituvchilar Internet vositasida turli ilmiy- amaliy konferensiyalar, seminarlar materiallaridan foydalanishlari, hamkorlar bilan tajriba almashish maqsadida hozirgi davrda kengayib borayotgan o'qituvchilar forumlaridan foydalanishlari ham foydadan holi bo'lmaydi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi. O'qish va nutq o'stirish darslari jarayonida dasturda belgilangan mavzular asosida o'quvchilarga muayyan bilim beriladi. O'qish ko'nikmalarini takomillashtira borish bilan bir qatorda o'quvchilarni ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash vazifasi ham diqqat markazida bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda o'qish va nutq o'stirish darslari jarayonida dasturining maqsad va vazifalariga ko'ra o'qish darslari orqali o'quvchilar to'g'ri, ongli, ravon, tez va ifodali o'qishga o'rgatiladi. Bolalar bu jarayonda kitob bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lib boradilar va ularda kitobga muhabbat tuyg'usi uyg'otiladi. Mazkur jarayonning sifatli va

samarali amalga oshirilishi bevosita o`qish darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o`quv innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishga bog`liqdir

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish, hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Hozirda axborot texnologiyalardan samarali foydalangan holda ta'lim jarayonini amalga oshirish pedagog xodimlarning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Albatta, bu jarayonni amalga oshirishda texnik vositalardan foydalanish davr taqozosidir. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham maqolada keltirib o'tilgan texnik vositalardan samarali foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etishlari kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o`quv-uslubiy qo`llanma). – Qarshi: Nasaf, 2011.
2. Alimov N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik ta'limga tayyorlash . Maktabgacha ta'lim. – T., 2005.
3. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 4 Issue 1 / February 2023
4. Axmedova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o`zlashtirish darajasini aniqlash va tahlil qilish . Bola shaxsini rivojlantirishning dolzarb muammolari mavzusidagi II xalqaro anjuman. – T.: 2008.
5. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." *International Journal on Orange Technologies* 3.12 (2021): 211-216.
6. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 11. 2022.
7. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO `RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.4 (2022): 70-81.
8. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO `RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.3 (2022): 288-296.
9. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."